

YANGI O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY JURNALISTIKA.

Behzod O'rinov

Jurnalist

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7238144>

Hozirgi kunda tub islohotlar yo'lidan borayotgan Yangi O'zbekistonda, Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ommaviy axborot vositalari, so'z erkinligi va jurnalistikaning jamiyatimiz rivojida o'rniga alohida e'tibor qaratmoqda.

Jahon miqyosida jurnalistika paydo bo'lgandan beri ommaviy ahborot vositalarida tanqidiy, tahliliy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy maqolalar, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar auditoriya e'tiboriga havola qilib kelinadi. Darhaqiqat, inson qadri, uning huquq va erkinliklari zamon va makon chegaralarini tan olmaydi, har bir davrda o'z ahamiyatini yo'qotmasdan har doimgidek muhim e'tibor kasb etib kelaveradi. Ommaviy ahborot vositalari o'z tamoyillariga sodiq qolgan holda jamiyatda faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Shu bois, ushbu tamoyillarni va ommaviy ahborot vositalarini yanada rivojlantirish masalasida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar ham ancha yildan beri olib boriladi.

Albatta biz ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalistlar ushbu islohotlarning amalga oshishida jonbozlik ko'rsatmog'imiz darkor.

Yangi davrda jurnalistik tamoyillarning o'zgarishi va ularning ahborot samaradorligiga ta'siri, xususan matbuotimizda jurnalistikaning haqqoniylik va xolislik tamoyillari aks etishi, Yangi O'zbekistondagi islohotlarning ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish, ularni keng tahlil va tadqiq qilish katta ahamiyatga ega. Xususan bosma nashrlar faoliyatini takomillashtirishning dolzarb masalalari butun jahon muammosiga aylanmoqda. Shu bois, bugungi kun tadqiqotchilari oldiga mavzuni chuqur ochib berish vazifasi qo'yilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari sezilarli darajada rivojlanish bosqichida. Bunga misol ommaviy axborot vositalarining soni

4 baroborga oshib, 1500 ta dan oshdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak ushbu tarmoqda rivojlanish izchil davom etmoqda. Albatta biz bundan mamnun bo'lishimizga arziydi.

Yurtboshimiz so'zlariga ko'ra, "Eng muhimi, soha rivojida ana shunday miqdor o'zgarishlari bilan birga sifat o'zgarishlari ham yuz bermoqda. Buning tasdig'ini milliy media maydonimizda fuqarolik jamiyatining muhim sharti bo'lgan nodavlat ommaviy axborot vositalari tarmog'i kengayib, samarali faoliyat ko'rsatayotgani, internet jurnalistikasi jadal rivojlanib borayotgani

misolida yaqqol ko'rish mumkin.”¹ Haqiqatdan ham, respublikamizda nodavlat nashriyotlar, teleradiokanallar, internet saytlari jamiyatda faollik ko'rsatib, o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Davlatimiz rahbarining ommaviy axborot vositalari xodimlariga bildirgan ijobiy, iliq fikrlari gapimizga dalil bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi:

“Keyingi paytda ommaviy axborot vositalari xodimlarining demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni va nufuzini, mahalliy gazetalar, teleradiokanallarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng asosiysi, matbuotda fikrlar, qarashlar xilma-xilligini ta'minlash bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilgani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Gazetalarimiz, teleradiokanallarimizda oshkoralik, tahlil va xolis tanqid ruhi kuchaygani, bevosita xorijiy mamlakatlardan tayyorlanayotgan materiallar soni ortib borayotganini biz har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz deya so'z yuritar ekan Muhtaram yurtboshimiz, Bugun biz dunyodagi uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizdagi demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo'yicha ham hali ko'p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunamiz. Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda “to'rtinchi hokimiyat” darajasiga ko'tarilishi zarur. Bu – zamon talabi, islohotlarimiz talabi.”²

“El yurtimiz, jamoatchiligimiz matbuot nashrlari, teleradiokanallar, nashriyot va matbaa korxonlari, internet saytlari, axborot xizmatlarida o'z vazifasini sidqidildan ado etayotgan zahmatkash journalist va bogerlar, noshir va muharrirlar, tarjimon va rassomlar, rejissyor va operatorlar, barcha texnik xodimlarning mashaqqatli mehnatini yaxshi biladi va yuksak qarlaydi.

Bugungi kunda OAV tom ma'noda to'rtinchi hokimiyatga aylanib bormoqda.

Achchiq gap va tanqidiy materiallar joylardagi ko'plab amaldorlarga yoqmasligi ularning tinchini va halovatini buzayotganligi bor gap”. Haqiqatdan ham ommaviy axborot xodimlari shaffof va tezkorlikda o'z ishlariga mas'uliyatli yondashsalar, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan isloxotlar rivojiga o'z hissalarini qo'shgan buladilar.

“Oshkoralik va so'z erkinligi - bu davr talabi, bugun O'zbekistonda olib borilayotgan isloxotlarning talabi.”

¹Mirziyoyev Sh. – matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigi – 27.06.2018

²O'sha manbaa

Haqiqatdan ham Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan yangicha isloxotlarda so'z erkinligi, oshkoralik muhim ahamiyatga ega.

Ustozimiz Karim Baxriyevning ushbu maqolasida so'z erkinligi haqida shunday fikrlar keltirilgan.

“So'z erkinligi fuqarolarimiz, xalqimizning insoniy huquqlari ro'yobga chiqishining o'zak kafolatidir, insonning ajralmas huquqidir. Inson huquqini so'z orqali biladi, so'z orqali ifoda etadi, so'z orqali himoya qiladi. Insonning so'z erkinligi bo'g'ilar ekan, uning boshqa huquq va erkinliklari ham amalga oshmaydi. Matbuotga va uning vakillariga munosabat – xalqqa, uning insonga xos bo'lgan so'zlash huquqiga munosabtdir, davlatning demokratik ekani yoki emasligining bosh ko'rsatkichidir.

Ijtimoiy mavzularni yoritishda xolislik tamoyillarining dolzarbligi bu tanganing ikki tomoniga ham qarash deganidir. Albatta har bir jurnalist biror tanqidiy material tayyorlashdan avval, masalaga ob'yektiv yondashgan holda olayotgan ma'lumotlarni ikki tomonlama o'rganadi. Masalaga xolislik bilan yondashish, bu jurnalistning kasbiy majburiyati hisoblanadi. Albatta haqqoniylik, xolislik, adolat va inson huquqlariga hurmat O'zbekiston jurnalistlarining asosiy qoidalaridan biridir. Jurnalist qonunlar va xalqaro huquq normalariga asoslanib ish olib borishi kerak. U obro'-e'tiborini, sha'nini himoya qilish kerak.

Haqiqat o'zi nima?

Inson bor ekan, nafs bor ekan, muammolar tugamasa kerak. Yer yuzida butkul adolat o'rnatilgan davlatning o'zi yo'q. Nafsning iymon, vijdon bilan kurashi qiyomatgacha davom etadi. Tanqid hamisha bor narsa. U yashirin yoki yuzada bo'ladi.

Jurnalist o'z sha'nini qanday himoya qilish kerak? Darhaqiqat ustozimiz Karim Bahriyevning fikrlarini o'rganib chiqamiz. Jurnalistlar ijodiy uyushmasi 2019 yil fevralida jurnalistika ahloq kodeksini ishlab chiqdi.

Jurnalistning birinchi vazifasi kasb sharafini himoya qilish. jurnalistik ma'suliyat deganida bizlar, masalan kommunistik partiya davrida kommunistik mafkura bor edi. Jurnalist uchun haqiqat nima, kommunistik mafkuraga to'g'ri kelgan narsa haqiqat, mafkuraga to'g'ri kelmagan narsa haqiqat emas deb hisoblangan. Mustaqil bo'ldik. O'zbekiston Konstitutsiyasida hech bir mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilmaydi. Fikrlar turli tumanligiga asoslanamiz deb Konstitutsiyada bevosita yoritilgan. Bu degani endi har bir jurnalist o'z bilganini yozar ekan, o'zi e'tiqod qilgan narsasini qilar ekan degani emas. O'zi qonunlarda kommunistik mafkura bo'lmasa ham, inson huquqlari mafkurasini, umuminsoniy qadriyatlar, millat, madaniyat, til, tarix, yashash huquqi, axborot

huquqi, soʻz erkinligi, umuman inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida yozilgan insoniy huquqlar bular jurnalistning maʼlim maʼnoda eʼtiqodi boʻladi bugungi kun jurnalistikada. Ikkinchidan jurnalistning ijtimoiy maʼsuliyati bor. Jurnalistning maʼsuliyati besh-olti qatlam.

Birinchidan- oʻzining oldidagi maʼsuliyati,

Ikkinchidan- oʻzi ishlab turgan ommaviy axborot vositasining shaʼni,

Uchinchidan-jurnalistik shaʼni, kasb shaʼni. Masalan, qaysidir jurnalist pora olsa, yoki qaysidir jurnalist hokimiyatdan uy olsa, rost soʻzni yozmay qoʻysa, uning qilayotgan ishi jurnalistlar shaʼniga kelib qadaladi va qaysidir tashkilot moddiy jihatdan yordam berganman shu jurnalistga deb gapira boshlaydi. Jurnalist imkon darajadasida sovgʻa olmaslik kerak, agar olgan taqdirda ham tanqidni, xolislikni davom ettirish kerak. Kasb etikasini zimdan boʻladigan masalalari bor. Masalan, siz iqtisodiy sayt yoki gazetada ishlaysiz. Sizga ekspertlarning xulosasi keldi. Yaqin atrofda falon kompaniyaning aksiyalari narxi koʻtariladi desa, matbuotga chiqishidan oldin borib oʻsha aksiyalarni sotib olib keyin maqolani chop etsangiz, siz birdaniga boyib qolasiz. Shunda siz kasbingiz tufayli maʼlim boʻlgan maʼlimotdan oʻz manfaatingiz yoʻlida foydalanasiz. Shuning uchun kasb ahloqi juda chuqur mohiyatga ega. Albatta kasbning shaʼnini himoya qiladigan jurnalist sovgʻa salomlar olishdan tiyilish kerak.

Yozuvchi kim u? Yozuvchi mavjud voqeylikni xolis turib, neytral holatida kuzata oladigan va ifodada ham, tasvirda ham mana shu neytralligini saqlab qoladigan yozuvchi haqiqiy yozuvchi hisoblanadi. Jurnalist xolisligi aksariyat holatlarda kuzatilmaydi. Jurnalistlar chetdan qaraganda yaxshi faoliyat yuritayotgandek tuyulishi mumkin. Mashhur trenddagi 10 ta jurnalistni oladigan boʻlsak faqat oʻzi ishlaydigan tashkilot rahbarini maqtaydi, xolislik sezilmagandek tuyuladi. Jurnalist erkin, qoʻrqmas, xolis boʻlishi uchun, hech kimning oldida tili qisq boʻlmasligi kerak. Betaraflik aktivizm bilan loqaydlik oʻrtasidagi holat. Aktivizm bilan loqaydlikning oltin oʻrtasini qanday topsak boʻladi? Qaysidir voqeylikni muqobil chizigʻida faoliyat olib boorish kerak. Jurnalistik pozisiyada vatanparvarlik urf urib turish kerak.

Albatta axborotning xolisligi uchun, maʼlumotlarni yaxshilab tekshirib mutlaqo ishonch hosil qilgandan keyin materialni taqdim etish kerak. Maqolalarni sifati boshqaruv organlaridagi matbuot kotiblariga ham bogʻliq. Aksariyat matbuot kotiblari informatsiyani yashirishga harakat qiladi. Bu notoʻgʻri. Keyingi yillarda barcha idoralarda matbuot kotiblari ijobiy ish olib bormoqda.

Bugungi yoshlarda ancha imkoniyatlar bor. Avvallari kuchliroq bir maqola, material tayyorlasangiz maʼlum qismlarini kesib tashlashardi. Yozadigan odam

ushbu materialni bu holda chiqarolmayman deb o'zini o'zi tahrir qilardi. Bugungi yoshlarda bu muammo yo'q. Qaysidir nashriyot qabul qilmasa boshqa nashriyotga olib boradi, yoki bo'lmasam internetga chiqaradi. Texnik imkoniyatlar, foto imkoniyatlar sifatli rivojlandi. Biz qarashimiz kerak bol'gan majburiyatlar quyidagilar:

Inson huquqlari:

Shaxsning qadr qimmatini:

Insoniylik, hayotiylik:

Diniy qadriyatlar:

Ya'ni internetda kimnidir tuhmat qilatyotgan, kimnidir haqorat qilayotgan, zo'ravonlik sahnalari chiqib ketyapti. Birovni kaltaklab ketayotgan sahnalar ham yo'q emas. Har bir narsani yozishda, nashr etishda, internet saytlarida tarqatishda inson nimaga tayanadi? Masalan, zamonaviy jurnalistda nomus or, vijdon insoniylik jihatlari aks etib turish kerak. Masalan qaysidir ayblanuvchi fuqaro qandaydir ablah ishlar qilgan bo'lsa ham, u odamning oilasi bor, farzandlari bor. Yoki qandaydir videoni chiqarmoqchi bo'lsak necha mingta obunachi uchun. Mazkur videoda tasvirlangan odamlarning haq huquqlari bor, hattoki birov sudda ayblanuvchi bo'lsa, u fuqaroning sudda isbotlangan aybini yozish kerak. Hali hech narsa bo'lmasdan turib falon maktabda korrupsiya fosh qilindi deb eshitsak u haqida darrov matbuotga chiqarishimiz kerak emas. Qachonki, hujjatlarda kelitirilib u fuqaro haqiqatdan ham aybdor deb topilsa shundan keyin maqolani chiqarishimiz kerak. Bugungi matbuotda davlat nashrlari bor, xususiy nashrlar bor. Bugungi kunda davlat matbuotlarida davlat o'zini siyosatini yurgizadi.

Xususiy matbuot, televideniya esa uning egasini manfaatlari aks etib turadi. Jamoatchilik mediasi degan ibora bor. Shunaqa gazeta yoki televideniya jamiyatni muammosini hal qiladi, xalq manfaatini himoya qiladi. Bizga shunaqa televideniya yoki matbuot bo'lsa xalqni dardini eshitishi mumkin. Ikkinchi tarafdin shunday matbuot bugungi kunda asta sekinlik bilan ommaga chiqmoda. Avvalari ham jurnalistika sohasida korrupsiya bo'lgan. Shuning uchun hozirgi kunda imkon qadar kasb axloqiga rioya qilish kerak. Jurnalistik mas'uliyatiga amal qilsih kerak. Jurnalistik mas'uliyati:

O'zi faoliyat olib borayotgan ish joyidagi mas'uliyat, kasbdoshlari oldidagi mas'uliyat, jurnalist degan nom oldidagi mas'uliyat, Vatan oldidagi burchi, eng avvalo asosiysi Alloh oldidagi e'tiqodini, mas'uliyatini, burchini his qilib yashash kerak.

So'z erkinligining chegarasi boshqa bir insonni sha'nini, qadr qimmatini yerga urmaslik, yolg'on yozmaslik, so'z tig'i bilan o'ldirmaslik kerak. Inson

ko'mglini vayron qilish Ka'bani vayron qilish bilan barobardir. Jurnalist Karim Baxriyevning ushbu qimmatli maslaxatlari har bir jurnalist uchun o'z mas'uliyatini his qilishini yana bir bor eslatib qo'yadi desak to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Foydalanilgan sayt lex.uz: Mirziyoyev Sh. – matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga bayram tabrigi – 27.06.2018